

BADIIY TARJIMADA JINSNI TAVSIFLASHDA O‘XSHATISH SO‘ZLARINING O‘RNI VA KO‘RINISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10199211>

Ko‘chimova Parizod To‘lqin qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘xshatishlar belgisiga ko‘ra hamda strukturasi ko‘ra tasniflangani hindiy tili orqali qiyoslanib misollar orqali ifodanalangan. O‘xshatishni chegaralashda asosiy uch ko‘rsatkich, ular grammatik tomondan tasnif etish, o‘xshatishning badiiy asarlardagi roli va yozuvchining uslubiga bog‘liq holda o‘rganish masalasi muhimdir.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, badiiy tasvir, obraz, grammatik belgi, logik o‘xshatish, o‘xshatish strukturasi, o‘xshatish oboroti.

THE ROLE AND APPEARANCE OF SIMILES IN DESCRIBING GENDER IN LITERARY TRANSLATION

Abstract. In this article, similes are classified by sign and structure, compared and illustrated with examples from the Hindi language. It is important to study three main indicators of delimitation of similes: grammatical classification, the role of simile in a work of fiction, and the style of the writer.

Keywords: simile, artistic image, image, grammatical sign, logical simile, simile structure, simile turnover.

O‘xshatish - badiiy tasvir vosifalaridan biri bo‘lib, obyektning orazli, ta’sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Sana’tkor qahramonlarni tasvirlashda ularning o‘ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o‘xshatishlardan foydalanadi. Ularni konkretlashtiradi, bo‘rttiradi. Kitobxonning diqqatini obrazning ko‘rinmas tomonlariga jalb qiladi, asarning g‘oyasini ochishga yo‘naltiradi.

O‘xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o‘xshashligiga aytiladi.

O‘xshatish obyekti tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet, hodisa; o‘xshatish obrazi- taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi, ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishidir.

O‘xshatishning belgisiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Grammatik belgili o‘xshatishlar. Bunda obyekt, obraz va belgilar grammatik-ko‘rsatkichi bilan mavjud bo‘ladi. Uch belgidan birortasi ham tushib qolmaydi.

2. Logik o‘xshatishlar. Bunda grammatik belgi ko‘rsatkich bo‘lmaydi. Lekin mazmunan “obyekt” va “obraz”lar bir-biriga mos keladi, ya’ni “obyekt” va “obraz”larning shaklan va mazmunan moslik belgisi obrazning o‘zida bo‘ladi.

O‘xshatish strukturasi ko‘ra oddiy va tizimli bo‘lishi mumkin.

Oddiy o‘xshatish terminida bir “obyekt” va “obrazli” o‘xshatishlar ko‘zda tutiladi. Tizimli o‘xshatish deb, biz ikki va undan ortiq “obrazli” o‘xshatishning mos kelishini aytamiz.

O‘xshatishlarni tarkibiga ko‘ra yana to‘liq va to‘liqsiz o‘xshatishlarga ajratish mumkin.

To‘liq o‘xshatishlarda qancha “ob’ekt” bo‘lsa, shuncha “obraz” bo‘ladi. Ya’ni “obyekt” bilan “obraz” teng bo‘ladi.

To‘liqsiz o‘xshatishlarda esa bir “obyekt”ga “obraz” yoki undan ortiq “obraz”larning taqqoslanishiga, yoki bir “obraz”, ikki “obyekt” o‘rtasida bo‘lib, har ikkala obyektga tegishli bo‘ladi.

O‘xshatishni chegaralashda asosiy uch ko‘rsatkich, ular grammatik tomondan tasnif etish, o‘xshatishning badiiy asarlardagi roli va yozuvchining uslubiga bog‘liq holda o‘rganish masalasi muhimdir.

O‘xshatish strukturasi (material tarkibi) haqida gapirganda yana quyidagi struktural tiplar haqida ham gapirish mumkin.

O‘xshatish oborotlari. Bu o‘xshatishning ko‘p tarqalgan formasidan biri hisoblanadi. Bu forma ba’zan o‘xshatish ergash gaplarga o‘xshab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: “o‘xshatish oborotlari, sostavlari qancha keng bo‘lsa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo‘lmagani uchun ergash gap bo‘la olmaydilar” [Абдурахмонов F, 1958:204].

O‘xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o‘rinda ma’lum predmet bir predmetga o‘xshatilsa, xuddi shu predmet biror predmetga o‘xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o‘rinda ikkinchi narsaga o‘xshatilishi mumkin. Prof. R.Qo‘ng‘urov o‘xshatish haqida o‘zining “O‘zbek tilining tasviriy vositalari” kitobida shunday degan: Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o‘xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash

qimmatini yo‘qotgandir. Bu tipdagi o‘xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak [Кўнғуров Р, 1977:42].

Tadqiqotimizda Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” romanida keltirilgan o‘xshatishlarni ayollarga va erkaklarga nisbatan ishlatilganligi bo‘yicha ajratib tahlil qilib chiqildi hamda ularning qay usulda tarjima qilingani, hindiy tilidagi o‘xshatish bilan o‘zbek tilidagi tarjimasi muvofiq kelganligi o‘rganib chiqildi.

Erkaklarga nisbatan ishlatilgan o‘xshatishlar:

दुमारू कपड़े झाड़ता हुआ उठा और एक पागल, हाँफते हुए लंगूर के समान चीखता-चिल्लाता हुआ लाची पर हमला करने को हुआ कि लाची ने फिर उसे पटकनी दी। [कृश्न चन्दर। 2013:90].

Tajimasi:

Dumaru ustini qoqib o‘rnidan turdi va *quturgan maymunday* chiyillab, qichqirgancha Laychiyga hamla qilmoqqa shaylandi, biroq Laychiy uni yana yelkasidan oshirib otdi [Кришан Чандар, 2011:92].

Tahlil:

Jumlada berilgan *quturgan maymunday* o‘xshatishiga e‘tiborimizni qarataylik. *पागल, हाँफते हुए लंगूर के समान* so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, *axmoq, hansiragan maymundek* deb tarjima qilinadi. Lekin tarjimon gap Dumaru haqida ketayotgani sababli kitobxonga bu tushunarli bo‘lishi uchun hamda asarda yuz berayotgan jarayonga nisbatan aynan quturgan so‘zini ishlatgan. Chunki maymundek o‘xshatishini ayollarga nisbatan ham ishlatga bo‘ladi. Ushbu jumlada esa tarjimon aynan quturgan maymundek deya aniqlashtirib, ushbu oxshatish Dumaruga tegishlilikini taakidlab o‘tgan.

चित्रकला अब भी जारी थी, लेकिन वह आधुनिक चित्रकला से बड़ा अप्रसन्न और दुःखी था, जिसमें स्त्रियाँ सरकण्डों की तरह कुरूप और दुबली हो जाती हैं और पुरुष-मोटे![कृश्न चन्दर। 2013:23].

Tarjimasi:

Hozir ham rasm chizib turardi, lekin u zamonaviy musavvirlardan qattiq hafa edi, ular ayol kishini qamishpoyadek ingichka, erkakni esa *qopday semiz* qilib chizar edilar[Кришан Чандар, 2011:20].

Tahlil:

Jumlada berilgan पुरुष-मोटे o‘zbek tiliga *qopday semiz* deb tarjima qilingan. पुरुष-मोटे so‘zma-so‘z shunchaki *erkaklar- semiz* deb tarjima qilinadi. Lekin tarjimon yozuvchining ayollarga nisbatan bergan o‘xshatishini hisobga olgan holda (*qamishpoyadek ingichka*) *qopday* so‘zini qo‘shib qo‘ygan. Qop bu bir

tomonni ochiq ikkinchi tomoni yopiq, ichi bo'sh, toladan tayyorlangan, ichiga narsa solinadigan buyum. Ichiga narsa solingandan so'ng qop shishib turadi. Shuning uchun erkaklarga nisbatn qopday semiz o'xshatishini ishlatish mos keladi.

Ayollarga nisbatan ishlatilgan o'xshatishlar:

दुमारू के लिए अब सबसे कठिन समस्या सामने थी। रीति व रिवाज के अनुसार अब उसे तम्बू में घुसकर लाची को अपनी भुजाओं में उठाकर अपने तम्बू तक ले जाना था और लाची कोई कोमल, दुबली-पतली **फूलकुमारी** न थी। [कृष्ण चन्दर। 2013:41].

Tarjimasi:

Dumaruning oldida og'ir masala ko'ndalang turardi. Udumga ko'ra endi u chodirga kirishi, Laychiyning qo'lida ko'tarib, o'zining chodiriga olib ketishi kerak edi. Biroq Laychiy deganlari **gulg'unchaday** latif, salga egilib ketadigan nozik nihol emasdi [Кришан Чандар, 2011:45].

Tahlil:

Ushbu jumlada berilgan **फूलकुमारी** so'zi hindiy tilida **फूल** gul degani, **कुमारी** so'zi esa qiz, malika, turmushga chiqmagan, bokira, 12 yoshgacha bo'lgan qiz deya tarjima qilinadi. Hindiy tilida bu so'z yasama hisoblanadi, hamda metafora tarzida berilgan. Tarjimon ushbu so'zni birlashtirib **gulg'unchaday** o'xshatishidan foydalanib tarjima qilgan. Chunki gulg'uncha ham hali ochilishga ulgurmagan bo'ladi, shuning uchun ushbu so'z bokira yosh qiz ma'nosiga to'g'ri keladi. Shuningdek, **दुबली-पतली** so'ziga ham e'tiborimizni qarataylik. Ushbu so'z o'zbek tiliga **ingichka** deya tarjima qilinadi. Lekin ko'rib turganimizdek tarjimada **latif** deya tarjima qilingan.

दुमारू ने उसे एक **फूल के समान** अपनी भुजाओं में उठा लिया और उसे अपने तम्बू की ओर ले चला। [कृष्ण चन्दर। 2013:36].

Tarjimasi:

Dumaruni bir **gul kabi** qo'llariga ko'tarib oldi va o'z chodiri tomon olib ketdi [Кришан Чандар, 2011:32].

Tahlil:

Yuqorida keltirilgan jumlada yozuvchi yana ayollarni gulga o'xshatgan. Tarjimon ham ushbu o'xshatishni so'zma-so'z tarjima qilgan. Hindiy tilida o'xshatishlarni ifodalash uchun **के समान, तरह** so'zlaridan foydalaniladi. Bu yerda ham gul so'ziga **के समान** ni qo'shish orqali o'xshatish hosil bo'lgan. O'zbek tilida ham shu yo'l orqali o'xshatishlar hosil qilinadi. Shuning uchun ham tarjimon tomonidan ushbu o'xshatish so'zma-so'z tarjima qilingan.

मामन और उसकी पत्नी तम्बू के बाहर सोये थे। परन्तु आज लाची को देर तक नींद न आयी। वह देर तक तम्बू की जाली हटाकर आकाश को देखती रही। और देर तक उसका हृदय किसी दूर-दराज सितारे के समान हिलता रहा।

Tarjimasi: Maman bilan xotini chodirdan tashqarida uxlashgan edi. Laychiyning allamahalgacha uyqisi kelmadi. Chodirning chiy pardasini ko'tarib qo'yib, u osmonni uzoq tomosha qildi, yuragi olisdagi *yulduz misoli* titrab, orziqib yotdi.

Tahlil: O'zbek tilida o'xshatishlarni hosil qilish uchun *-day, -dek, qo'shimchalari, kabi, singari, misoli* so'zlaridan foydalaniladi. Ayollarni ko'pincha nozik narsalarga o'xshatish odat tusiga kirgan. Yuqorida berilgan jumladan ko'rishimiz mumkin, yozuvchi asardagi Laychiyni yurak titrashini ham yulduzga o'xshatgan. Hindiy tilidagi *सितारा* so'zi *yulduz* deb tarjima qilinadi. *के समान* esa kabi deb tarjima qilinadi. Tarjimon ushbu o'xshatishni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilgan.

लाची ने चलते-चलते माधो की दुकान से एक अमरूद उठा लिया और अपने बेहद सफ़ेद और जुड़े-जुड़े दाँत उसमें गड़ा दिए और गिलहरी के समान खाने लगी। वह खाती जाती थी और चंचल दृष्टि से माधो की ओर देखती जाती थी [कृश्न चन्दर। 2013:20].

Tarjimasi:

Laychiy o'rnidan turib, sekin bordi-da, Madxo'ning do'konidan shartta bir olmurutni oldi, uni oppoq sadafdek tishlari bilan qarsillatib tishladi va *olmaxonday* tez-tez kavshay ketdi.

Tahlil:

Jumlada berilgan गिलहरी के समान o'xshatishiga nazar solaylik. गिलहरी o'zbek tiliga *olmaxon* deya tarjima qilinadi. Yozuvchi gap ayol kishi haqida ketayotgani sababli uni olmaxonga o'xshatgan. O'zbek tiliga ham so'zma so'z tarjima qilingan.

दिलआरा का कद लाची से भी लम्बा था। शरीर का रंग मोतियों की तरह स्वच्छ था। गालों में गुलाब के फूल खिलते थे और आँखों में कमल की-सी पवित्रता थी। [कृश्न चन्दर। 2013:45].

Tarjimasi:

Diloroning bo'yi Laychiydan ham balandroq edi. Rangining tozaligiga gap yo'q - Yaman duri deysiz. Yuzlarida atirgul ochilib turganday, *ko'zlari bir juft nilufar* - odamni sehrlab oladi.

Tahlil:

Yuqorida keltirilgan jumlada **कमल की-सी** o‘xshatishi nilufar kabi deya tarjima qilinadi. Nilufar bu – suvda o‘sadigan ko‘p yillik o‘simliklar turkumi. Uning ikki turi – guli pushti va sariq mavjud. Bargi yirik, qalqonsimon, bandi uzun, suv betide qalqib turadi yoki suvdan yuqori ko‘tarilib o‘sadi. Guli yakka, yirik, ikki jinsli, oq yoki pushti, xushbo‘y bargi ustida ochiladi. Hindistonda nilufar lotus deb ham ataladi va qadimdan muqaddas o‘simlik hisoblanadi. Ayollarga nisbatan ushbu o‘xshatishni ishlatish o‘rinli. Ushbu jumladagi o‘xshatish ko‘zlarga nisbatan ishlatilmagan. Hindiy tilidagi jumlada yozuvchi ko‘zlarni shunchaki nilufarga o‘xshatmagan. So‘zma so‘z tarjimasi - *ko‘zlarda nilufar kabi ilohiylik bor edi*. Nilufar guli Hindistonda muqaddas hisoblangani uchun yozuvchi ko‘zlaridagi nurni nilufardek ilohiylikka o‘xshatgan. Tarjimon bo‘lsa ko‘zlarini shunchaki nilufar guliga o‘xshatib tarjima qilgan.

Xulosa qilganda, ayollarni ko‘rinishi, xatti-harakatlari asosan gulga o‘xshatilgan. Shuningdek, ayollar nozikroq, kichikroq hayvonlarga o‘xshatilgan. Erkaklarga nisbatan esa kattaroq, ko‘rinishi ham yomonroq hayvon yoki narsalardan foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1958.
2. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан , 1977.
3. कृश्र चन्दर। एक लड़की हज़ार दीवाने। नई दिल्ली 2013 – .
4. Кришан Чандар. Бир қизга минг ошиқ. (Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти (3-сон). – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.